

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN UZUM  
YETISHTIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINQVI TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN UZUM YETISHTIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida uzum yetishtirish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Uzum yetishtirish**

- 1 Tok o‘simliklarining botanik tavsifi va bioekologik xususiyatlari
2. Uzum yetishtirish texnologiyasi;
3. Tok tuplarini shakllantirish. tok tupini shakllantirishning asosiy tiplari va ularni o‘stirish usullari;
4. Tok qalamchalarini yetishtirish texnologiyasi;
5. Tok o‘simligini ko‘paytirish va ko‘chat yetishtirish, ko‘paytirish usullari;
6. Tok o‘simligining bioekologiyasi
7. Tokzor barpo qilish
8. Tok novdalarini bog‘lash va xomtok qilish

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Tok o'simliklarining botanik tavsifi va bioekologik xususiyatlari	Uzumchilik – agrosanoat majmuining muhim tarmog'i. Uzum g'ujumining ozuqaviylik qiymati va ta'm sifatlarini belgilovchi asosiy tarkibi. Uzumchilik – mustaqil fan sifatida rivojlanishi. Uzum mahsulotlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati va tarqalganligi	8 ta
2	Uzum yetishtirish texnologiyasi	Uzumchilik – agrosanoat majmuining muhim tarmog'i. Uzum g'ujumining ozuqaviylik qiymati va ta'm sifatlarini belgilovchi asosiy tarkibi. Uzumchilik – mustaqil fan sifatida rivojlanishi. Uzum mahsulotlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati va tarqalganligi. Hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari	1 ta
3	Tok tuplarini shakllantirish. Tok tupini shakllantirishning asosiy tiplari va ularni o'stirish usullari	Tuplarni o'stirish tizimlarini shartli ravishda ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: tayanchsiz va tayanchli. Sekin usul. Tez usul. Jadal usul. Uyg'unlashgan usul. Boshsimon shakl berish. Kosasimon shakl berish. Yelpig'ichsimon shakl berish. ko'milmaydigan uzumchilikda tuplarni shakllantirish	1 ta
4	Tok qalamchalarini yetishtirish texnologiyasi	Qalamcha tayyorlanadigan madaniy navlar ona tokzorlarini barpo etish: Oddiy ona tokzorlar. Intensiv tipdagi ona tokzorlar. Superintensiv ona tokzor. Qalamchalarni tayyorlash va saqlash. Novda sifatiga qo'yiladigan talablar, tayyorlash muddati. Qalamchalarin tayyorlash texnikasi. Payvandtag va payvandust qalamchalarni saqlash. Yerto'lalarda saqlash. Xandaqlarda saqlash. Yer ustki uyumlarda saqlash. Qalamchalarni bostirma ostida saqlash, sovuqxonalarda saqlash. Qalamchalarga ekisholdi ishlov berish	1 ta
5	Tok o'simligini ko'paytirish va ko'chat yetishtirish, ko'paytirish usullari	Tok o'simligini vegetativ yo'l bilan ko'paytirishning nazariy asoslari. <i>Payvand</i> – texnologik tadbirlar. To'qimalar hujayrasi usuli. Ko'chat ishlab chiqarishning zamonaviy bazasini shakllantirish. Original ona tokzor. Elita ona tokzor. Reprodukcion ona tokzor	3 ta

6	Tok o'simligining bioekologiyasi	Abiotik (fizik-geografik) omillar. Iqlim: Edafik. Topografik. Biotik. Antropogen. Harorat yorug'lik suv balansi. Shamol ozuqa tartiboti. Iqlim, tuproq va topografik sharoitlarning ahamiyati. Tuproq mexanik tarkibining ta'siri.	4 ta
7	Tokzor barpo qilish	Tokzor uchun maydon tanlash. Nav tanlash va ularni joylashtirish. Tuproqni ekishga tayyorlash. Tokzor maydoniga tuplarni joylashtirish. Ekish muddatlari va chuqurligi. Tok ko'chati va uni ekishga tayyorlash, ekish	1 ta
8	Tok novdalarini bog'lash va xomtok qilish	Yashil novdalarni chilpish. Tok novdalarini chekanka qilish. Tokni bachkilash. Qarigan barglarni olib tashlash	7 ta

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

#### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## **VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt**

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## **VIII. Imtixon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Зармаева А.А. Виноградарство с основами первичное переработки винограда. -М.Колос, 2011. -508 с.

2. Негруль А.М. Виноградарство и виноделие. -Москва: Колос, 1968.

3. Темуров Ш.Т. Узумчилик. -Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2002.

4. Уинклер А.Дж. Виноградарство США. Москва: "Колос", 1966. С.8-19.

5. Sulonov K.S., Abdikayumov Z.A. "Uzumchilik" darslik. – Toshkent, 2023.

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.